

QON HIDI ASARIDAGI BADIY OBRAZ TALQINI

Axmedova Iltijoxon

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat til va adabiyot unversiteti
(Adabiyotshunoslik yo'nalishi)
2-bosqich magistranti*

Anotatsiya: *Ushbu asar orqali badiiy talqinlar orqali Afg'on urushi tas'virlari haqida ma'lumotga ega bo'lasiz*

Kalit so'zlar: *urush, tas'vir, obraz, badiiy, chizgilar.*

Yozuvchi Abdurashid Nurmurodovning “Qon hidi” asaridagi Afg'on urushining chizgilarini boshq yozuvchilarimizning asarlarida uchratmaymiz. Bu ham uning o'z so'ziga bo'lgan sadoqati borligidan darak beradi.

Asarning tuzilishi ikki qismni tashkil etadi. Birinchi faslida tabiat tas'viri jonli gavdalanadi.

Masalan: Simobiy tusga kirib chayqalayotgan suv harakati dahshatli edi. O'zandan qirg'oqqa toshib chiqqan to'lqinlarning jarohatlangan burgut qanotlaridek bir gaz yuqoriga ko'tarilib havoda muallaq qolishini qo'rquv ila kuzatib turardim.[15 b]

Professor Qozoqboy Yo'ldosh ushbu asarning so'zboshi qismida “O'zbek romanchiligida urush kishisi tabiatiga o'zgacha yondashish, uni o'zgacha raqurslarda ko'rish va ko'rsatish tamoyili yuzaga keldi. Buning qaldirg'och namunalaridan bo'lmish “Qon hidi” romani o'zining badiiy haqiqati bilan milliy nasrimizning ulkan yutug'i bo'lib qoladi –deydi.

Ushbu o'zgacha ko'rinish hammaninag nazarida xar xildir. Tabiat bilan insonning bevosita bir biri bilan bog'liq ko'rsatishi inson qalbiga tezroq kirib borishidan darak beradi. Buni sezish faqatgina ijodkorga bog'liqdir. Ijodkor qachonki buni his etadi ushbu hayotda yashay olsagina qalbgina kira oladi. Abdurashid Nurmurodov ham kitobining so'ngida *-Ushbu roman qahramonlari mening og'riqli kunlarimda duch kelgan odamlar edi :-deydi.* Badiiy obrazda voqealichni aks etirishning eng muhim vositasi sifatida san'atning rostligi realism mezonlari jamlangan. Ayniqsa badiiy adabiyotda mazmun jonli hayot, uning xilma-xil qirralari, murakkabligi, boyligi va go'zalligidir. Har qanday g'oya badiiy asarning mazmunini tashkileta olmaydi, u faqat badiiy xususiyatga egaligi inson , jamiyat uchun ahamiyatliligi bilan barchani qiziqтира olgan g'oyalargina badiiy asar

mazmunini tashkil etadi. Lekin Afg'on urushi masalasi tarixiy ahamiyatga ega. Hech bir voqea xodisa jarayonlari xato qo'llanmasligi kerak.

Masalan: ...Ha odamning yolg'iz qolishidan mudhishroq kunning o'zi bo'lmasa kerak. Afg'onlar biz turgan pistirmanini sezib qolishgandan keyin, tunda ko'chishimiz haqida buyruq oldik. O'n bech kishi edik. [34]

Yozuvchi o'zi ishtirok etgan ko'zlari bilan ko'rgan jarayonni jonli yetkazib berishga harakat qilgan. Bu esa kitobxonda yozuvchiga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Mazmun badiiy asarning hamma qismlarini belgilovchi, uyushtiruvchi asos bo'lgani kabi "Qon hidi" asarining ham ketma ketligi voqealarning bir-biriga bog'lanishi shakllangan. Odamning vafotini maysa bilan bog'lashi. O'lim vidolashuv onlarini mahorat bilan tasvirlagan. Ayniqsa bir voqea jarayonini yani urushni o'tmishi bilan bog'lashga harakat qilgan.

Masalan: ...Sakkizinchi sinfda bizni paxtaga olib borishdi. Upayit xayriyat, suv, sovun bor edi. Poxol to'shalgan uyda o'ttiz nafar bola yashar edik :-deya urushdan ko'ra yaxshiroq hayotda yashaganligini aytmoqchi bo'ladi. Ushbu voqea orqali konkretlikni tiklashga urunadi.

Ushbu badiiy asarimiz biografik metod jihatidan muallifning hayot yo'lini o'rganayotganimizda bilishimiz mumkin. Uning jonli tas'virlari aynan ushbu metodga mos kelishi Afg'on urushi haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishimizga yordam beradi. O'zbek adabiyotshunosligida biografik metodning yetarli darajada samara bilan qo'llanmay kelayotgani ayni ijodkorni o'zi o'sha davrlarda yashab kelmagani sabablidir.

Afg'on urushida yozuvchimizning aynan ishtiroki oziq-ovqat haqidagi ma'lumotlarni bilishimizga olib keladi. O'sha davrni shu darajada mahorat bilan tas'virleydiki hayolingizga hozirgi yashayotgan payitingizga shukur keltirib qo'yasiz. To'g'ri badiiy tas'vir jarayonida salbiylik darajasi ancha ortgan. Lekin yuqori darajadagi tas'vir orqali go'yo o'sha davrdagi holatga tushasiz.

Inson qariganida yolg'izlanishi o'limni kutib yashashini kampir obrazi orqali ochib bergan. Bu obraz orqali millat, an'ana tas'viri, ota-onaga mehr muhabbatni ishora qilmoqchi bo'ladi.

Asar tili jihatidan juda sodda va ravon yozilgan. Qishloqdagi odamlar bilan go'yoki birga yashagandek bo'lasiz. Lekin voqea jarayoni bir boshi oxiri bo'lib ketadi. Sekin –asta asar qahramonlari birlashib bir –biri bilan bog'liqlik taraflarini ko'rsata boshlaydi. Badiiy asarni, tizim shakllanganmi yoki yo'qmi, bu shakl mukammal yoki nomukammal bo'lishidan qat'i nazar, tizimli shakllanish deb hisoblash kerak.

Ba'zi hollarda daxshatli syujet qismlarini ya'ni ayanch holatlarni ko'rishingiz mumkin. Zero, hodisot-u mo'jizalarga, turli hayotiy holat-u turfa taqdirlarga anvoiy fe'l atvorlarli odamlarga boy hayotda hamma ham ta'sirlanadi. Asar qahramonlari orsida Viktor ismli rus yigitning chidam bardoshiga duch kelasis. Afg'on urushining eng yorqin damlarini chizgilarni shu yerda ham ko'rishingiz mumkin.

Masalan: Tashnalik holdan toydirgan bo'lsa ham do'stlarimiz bizlarni bir-bir bag'irlariga bosishdi. Ularning bu harakatlaridan ikkovimiz ham qattiq ta'sirlandik. ko'zlarimizda g'iltillab yosh aylandi. Do'stlrimiz ham shu holda edilar. [45b]

Badiiy ijodning yana bir muhim unsuri –tasavvur edi. Misol uchun Gogolning ijodiy tasavvur quvvati oddiygina bir latifani "Shineldek mashhur qissaga aylantiradi. Abdurashid Nurmurodov esa asarning nomiga alohida to'xtalgan. Qon hidi orqali urush, chidab bo'lmas azobni chuqur ma'nosi yotadi. Ba'zi payitlarda qishloqning kichik tashvishlariga chiday olmayotgan yigitcha yillar o'tib Afg'onning azoblariga o'zini qurbon qilishga tayyor bo'ladi.

-Momo, ketaylik. Qishloqqa borib otamlarni yuboramiz,-dedim yalinganday. Chunki o'zimning ham bu yerda ko'p turishga holim qolmagan edi.

Adib ilhom onlarini ilhom onlarini tubigacha so'zlaydi. Bu chizgilar kitobxonni o'qishga yanada undaydi. Asarni mutoala qilib borar ekansiz momoning falaj bo'lishi bilan rus kampirning oyoq og'rishi haqida aytib o'tadi. Bolalik xotiralari esida qolganligi sababli o'zbek ayolini judaham mehr bilan tas'virlaydi. Hozir momo bo'lganida shu ayol tengi bo'lar edi deydi va o'zbek ayolining tinib –tinchimay ish qilishi og'ir mehnatlar ado qilishi haqida yozadi. Bu orqali kitobxon ko'z o'ngida butun o'zbek millati shakllanadi. Yozuvchi o'zbek yigiti Vohid orqali azob uqubatlardan, do'stlarini o'limini ko'rib charchagaani yorqin tas'virlagan. Ya'na Salomat ona o'g'li haqida ham haqiqiy fakt ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Ona ko'ngli uchun tirikligini izhor etadi.

Abdurashid Nurmurodovning butun asaralarini o'qir ekansiz xalqning ruhiga sodiq qolganini ko'rasiz. O'zbek xalqining zukkoligi donoligini samimiy kulgusini aytib o'tishga harakat qilgan.

Masalan: Ko'm-ko'k osmonda oppoq qo'zichoqlarday suzib yurgan pag'a-pag'a bulutlarga nigohlarim qadaganda qanchalar xushbaxt edim. [80b]

Badiiy tafakkurni rivojlantirish va tasavvurni yorqin dalillash o'rinlarini topishingiz mumkin. Ijodkor badiiy til unsurlaridan benihoya keng foydalangan.

Ushbu asarda o'zbek xalq maqollari hikmatli so'zlardan keng foydalangan. Obrazlari talqinida ism tanlashga benihoya e'tibor qaratgan. Mehmon kutish an'analarini aytib o'tgan. Bolalik xotiralaridagi "Mehmon marosimi" haqida ham to'xtalib o'tadi. Samarqanddan otasining o'rtog'i mehmon bo'lib kelganligi unga qanday hurmat ko'rsatganligini aytib o'tadi.

Asarning ikkinchi fasliga o'tar ekansiz alla haqidagi voqea jarayonlari borligi unda bevosita yuksak o'xshatishlarni ko'rishingiz mumkin. Bu faslda o'q otishmalarining jonli ko'rinishi yaqqol gavdalanadi go'yoki siz urush ishtirokchisi bo'lib o'zga dunyoni kashf etmoqda.

U o'lim haqida shunday yozgan edi *mening bor umidim o'lim* deydi. Inson o'zligi haqida esa shunday deydi va komillikka qanday yetib boorish haqida tafakkur bilan yondashadi.

...Odam umri, o'zi bilmagan so'qmoqlardan paypaslab yurishdan iborat ekan. Qancha kezdin, qancha yurdim bilmadim, oxir- oqibat, aylanib-o'rgilib o'zimga qaytib keldim [364]

Qon hidi asari qahramonlari Vohid, kampir, Lena, Qodir, Ahmad, Sharbat momo, Sergey kabilar urush davrining chinakam badiiy qahramonlari edi.

Bu asar orqali yurtning fidoiy insonlari ko'z oldingizda badiiy gavdalanadi. Ayniqsa ayol obrazlarini maromiga yetkazishi o'z bolasiga o'zbek ayoli kabi mehr berolmasligini o'zgacha tas'virib bergan.

Xulosa qilib aytganda badiiylik asarda real tas'virga ko'chgan ushbu asar orqali Afg'on urushi bilan tanisha olasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashid Nurmurodov "Qon hidi" asari
2. Adabiyotshunoslik nazariyasi
3. Psixologik asarlar tahlili